

## Sen Fir'avn oldiga borgin! Darhaqiqat u haddidan oshdi



14:00 / 19.12.2021 3351

Shundan so'ng Alloh taolo Muso alayhissalomga faoliyatga kirishishni amr qildi. Aslida, Muso mana shu ish uchun yaratilgan edi. Fir'avn yer yuzida haddidan oshib, tug'yonga tushdi, buzg'unchilik qildi. Uning qavmi Allohga kufr keltirdi. Ular ham Allohning yerida buzg'unchilik qildilar.

Alloh taolo esa bandalariga kuforni xohlamaydi. Pok Parvardigor yer yuzida buzg'unchilikning yoyilishiga rozi bo'lmaydi.

Alloh taolo Musoni Fir'avn va uning qavmi oldiga borishni buyurdi.

**«Albatta ular fosiq qavm bo'lgan edilar».**

Lekin Muso qanday qilib ular oldiga bora oladi?! Qanday qilib u zolimga ro'baro' bo'ladi?! Axir Muso kechagina bir qibtiyni o'ldirib qo'ymaganmidi?! Kechagi kun uzoq emasku?!

Misrdan qo'rqa-pisa yashirincha chiqib ketmaganmidi?!

Fir'avn jallodlari ham, qasr ahli ham uni yaxshi taniydiku?!.

«(Muso) **dedi: Parvardigorim! albatta men ulardan bir jonni o'ldirib qo'yganman. Bas (endi) meni o'ldirishlaridan qo'rqaman».**

Muso tilining duduqligi haqida zikr qildi. Lekin Alloh bularni barchasini biladi. Mana shularning barchasi bo'lishiga qaramasdan Musoni borishini xohlar edi.

Robbing Musoga: «**U zolim qavmga borgin. Fir'avn qavmiga.** (Bizdan) **qo'rqmaydilarmi?!»** deb nido qilganini esla.

U: «Ey Robbim, ular meni yolg'onchi qilishlaridan qo'rqaman. Va dilim siqilishidan hamda tilim burro bo'lmay qolishidan. Bas, Horunni elchi qil. Mening zimmamda ular nazdida gunoh bor. Bas, meni o'ldirishlaridan xavfdaman», dedi.

U zot: «Yo'q! Bas, ikkingiz Bizning oyat-mo'jizalarimiz ila boringlar. Albatta, Biz ikkingiz bilan eshitguvchilarmiz. Bas, Fir'avnga boringlar va unga: «Biz Robbul Olamiynning Payg'ambarlarimiz. Bani Isroilni biz bilan qo'yib yubor», deb aytinglar, dedi.

Alloh taolo Muso va Horunga Fir'avn bilan yumshoq muomalada bo'lishni tavsiya qildi.

Alloh taolo hatto Fir'avndek dushmanlari bilan ham ma'lum chegarada turib muloyim muomalada bo'lishni xush ko'radi.

«**Bas unga yumshoq so'z so'zlanglar! Shoyad pand-nasihat olsa yoki** (Mening qahrimdan qo'rqsa)».

***Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy***

***Tarjimon Anvar Ahmad***